

KREDITNING TO‘LIQ QIYMATI
(_____ %)YILLIK FOIZDA

Kredit karta ajratishning individual shartlarini belgilovchi Kelishuv

№ « _____ »

(Kredit karta berishning individual shartlari)

« _____ sh.»

« _____ yil»

Ushbu shartnoma Kredit karta berishning umumiy shartlari asosida tuziladi va tomonlarning ajratiladigan kredit karta shartlari hamda parametrlari sohasidagi munosabatlarini tartibga soladi.

Chet el kapitali ishtirokidagi “Hamkorbank” ATB boshqaruvi Raisi bundan keyin – “Bank” deb yuritiluvchi bir tomondan va bundan keyin “Qarz oluvchi” deb yuritiladigan va o‘z manfaatlari yo‘lida harakat qiladigan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi _____ F.I.Sh. , (pasport ma’lumotlari) boshqa tomondan, ular birgalikda “Tomonlar” deb yuritiladilar, quyidagilar to‘g‘risida ushbu shartnomani tuzdilar:

1. KELISHUV MAZMUNI

1.1 Bank qarz oluvchiga Kredit karta berishning umumiy shartlari asosida va ushbu individual shartlar asosida mazkur Kelishuvda belgilangan miqdorda onlayn mikroqarz berish majburiyatini zimmasiga oladi, Qarz oluvchi esa, o‘z navbatida, ushbu Kelishuv hamda Kredit karta berishning umumiy shartlari asosida olingan pul mablag‘larini belgilangan muddatlarda qaytarish va foydalanilgan mablag‘lar uchun foizlarni to‘lash majburiyatini o‘z zimmasiga oladi.

1.2. Agar avvalgi kredit(qarz) shartnomalari bo‘yicha har qanday to‘lanmagan muddati o‘tgan qarzdorlik mavjud bo‘lsa, kredit karta ajratish taqiqlanadi.

Kredit karta berishning individual shartlari		
t/r	Shartlar	Shartlarning mazmuni
1.	Kredit karta summasi(limiti):	“ _____ ” so‘m. Bank tomonidan beriladigan kayta tiklanadigan kreditning maksimal miqdori hisoblanadi va kredit mablag‘laridan foydalanilgan qismiga kamaytirilib, so‘ndirilgan asosiy qarz qismiga tiklab boriladi.
2.	Kredit kartadan foydalanish muddati:	« _____ » oy
3.	Kreditni qaytarishning oxirgi sanasi:	« _____ »
4.	Kredit karta bo‘yicha foiz stavkasi:	Yillik « _____ » % Bunda, kredit mablag‘lari tovar va xizmatlar sotib olish uchun foydalanilgan qismiga, keyingi oyning 20-sanasi qadar to‘liq qaytarilgan taqdirda foizlar undirilmaydi. Har oylik foiz to‘lovi kalendar oyi yakuni bo‘yicha hisoblanadi va to‘lov kuniga qadar so‘ndirilishi lozim.
5.	Oylik to‘lov (Minimal to‘lov):	Xar oyning 1-kunida, o‘tgan oyning oxirgi kunida mavjud bulgan kredit qoldig‘ining 10% miqdoridagi to‘lov, shu jumladan amalda foydalanilgan davr uchun

		hisoblangan foizlar (birinchi minimal to'lovdagi foizlar bundan mustasno).
6.	To'lov sanasi:	Xarajatlarni amalga oshirgan oydan keyingi har oyning 1-sanasidan 20-sanasiga qadar.
7.	Muddatida to'lanmagan qarzdorlik uchun peniya:	Kechiktirilgan har bir kun uchun muddati o'tgan qarzdorlikning 0,4 foizi miqdorida.
8.	Foizsiz davr	Agar foydalanilgan mablag'lar to'lov sanasidan oldin to'liq to'langan bo'lsa, qarz oluvchi kredit buyicha joriy oy uchun hisoblangan foizlarni to'lashdan ozod qilingan davr.
9.	Boshqa qoidalar:	<p>Kredit limiti mijozning to'lovga layoqatliligi pasaysa yoki to'lov tartibiga rioya qilmasligi holatida pasaytirilishi mumkin. 30 kundan 60 kungacha qarz oluvchining muddati o'tgan qarzdorligi mavjud bo'lsa, qolgan kredit limiti miqdori bloklanadi. Qarz oluvchi tomonidan barcha muddati o'tgan qarzlar to'langandan so'ng, bloklangan kredit limiti qayta tiklanishi mumkin. Muddati o'tgan qarzdorlik 60 kundan o'tgan taqdirda, kredit limiti bloklanadi va qayta tiklanmaydi.</p> <p>Kredit limiti oxirgi 12 oy davomida, 37-oy oydan boshlab, har oy bir xil bo'lgan qismga pastaytiriladi. Agar to'lov sanadagi qarzdorlik, kredit limitidan ortiq bo'lsa, ortgan qismga ushbu oy to'lov summasi qo'shiladi.</p>